



## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBALARI

## INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FINANCING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PROJECTS

<sup>1</sup>Qurbonova Shohsanam  
Tojiddin qizi

<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirishning xalqaro tajribasi tahlil qilingan. Xususan, Yevropa mamlakatlari misolida DXSh bozorining so'nggi tendensiyalari, moliyalashtirish manbalari, risklarni taqsimlash mexanizmlari hamda institutsional ishtirokchilarning roli o'rganilgan. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSh loyihalarini amalga oshirishdagi farqlar, ularning moliyaviy xususiyatlari va samaradorligi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari DXSh mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va infratuzilma loyihalarini samarali moliyalashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

*Eng.* - The article analyzes the international experience of financing public-private partnership (PPP) projects. In particular, the latest trends of the PPP market, sources of financing, mechanisms of risk distribution and the role of institutional participants are studied on the example of European countries. Also, the differences in the implementation of PPP projects in developed and developing countries, their financial characteristics and effectiveness were comparatively analyzed. The results of the research allow for the development of practical recommendations for the improvement of PPP mechanisms, improvement of the investment environment and effective financing of infrastructure projects.

### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma loyihalari, moliyalashtirish mexanizmlari, risklarni taqsimlash, investitsiyalar, xalqaro tajriba, institutsional investorlar.

❖ public-private partnership, infrastructure projects, financing mechanisms, risk sharing, investments, international experience, institutional investors.

### Kirish.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) zamonaviy iqtisodiyotda infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish va budget resurslaridan samarali foydalanishning muhim instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlat va xususiy sektor

o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, innovatsion yechimlarni joriy etish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

So'nggi yillarda global miqyosda infratuzilmaga bo'lgan talabning ortishi, davlat byudjetlarining cheklanganligi va xususiy

kapitalning faollashuvi DXSh mexanizmlariga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Ayniqsa, transport, energetika, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi strategik sohalarda DXSh loyihalarini amalga oshirish davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mazkur mexanizm nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki risklarni samarali taqsimlash, boshqaruv samaradorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini ham beradi.

Biroq, DXSh loyihalarining yuqori salohiyatiga qaramasdan, ularni amalga oshirish jarayonida qator murakkabliklar va cheklovlar mavjud. Xususan, loyihalarni moliyalashtirish, risklarni adolatli taqsimlash, institutsional muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligi va huquqiy bazaning mukammal emasligi kabi omillar mazkur sohaning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tajribani o'rganish va turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarni tahlil qilish alohida ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi – davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, ularning asosiy xususiyatlari, afzalliklari va mavjud muammolarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada turli iqtisodiy sharoitlarga ega mamlakatlarda DXSh mexanizmlarining qo'llanilishi, moliyalashtirish manbalari va risklarni boshqarish amaliyotlari qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot natijalari davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yanada takomillashtirish, milliy iqtisodiyot sharoitida samarali qo'llash hamda investitsiya faolligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

### ***Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.***

Turli ilmiy maktablar va tadqiqotchilar tomonidan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmini o'rganishga bag'ishlangan qator

tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda turlicha mualliflik yondashuvlari shakllantirilgan.

Bir guruh olimlar DXShni bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va davlat xizmatlarini samarali tashkil etish vositasi sifatida baholaydilar [12]. Ularning fikricha, davlat va xususiy sektor resurslari birlashganda loyihalarni amalga oshirish tezlashadi, xarajatlar kamayadi va xizmat sifati oshadi. Masalan, Charles W. Cook kabi tadqiqotchilar DXShni mahalliy hokimiyat organlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda progressiv vosita sifatida ko'radi [3]. Uning qarashlariga ko'ra, xususiy sektor tajribasidan foydalanish davlat xizmatlarini yaxshilash imkonini beradi.

Rossiyalik iqtisodchi olim A. Beliskyaning fikricha, «davlat-xususiy sektor hamkorligi - davlat hokimiyati organlari va tashkilotlari va xususiy tadbirkorlik subyektlarining bevosita davlat manfaatlari va nazorati sohasidagi obyektlarga nisbatan o'zaro manfaatli hamkorligi, muhim davlat va jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan loyihalarni samarali amalga oshirish maqsadida hamkorlar o'rtasidagi xavflarni taqsimlashni nazarda tutadi» [2]. A. Beliskyaning fikriga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik davlat organlari va xususiy sektor o'rtasida davlat manfaatlari doirasidagi obyektlarga nisbatan o'zaro manfaatli hamkorlik bo'lib, muhim davlat va jamoat ahamiyatiga ega loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan.

E.S. Savas davlat-xususiy sheriklikni davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik sifatida talqin qiladi. Uning yondashuviga ko'ra, mazkur mexanizm orqali ilgari to'liq davlat tomonidan amalga oshirilgan ayrim faoliyatlar xususiy sektor ishtirokida bajariladi. Bu esa davlatning vazifalarini qayta taqsimlash va xizmat ko'rsatish jarayonida xususiy sektor imkoniyatlaridan foydalanishni anglatadi. Savas qarashlarida davlat-xususiy sheriklik davlat yukini kamaytirish, samaradorlikni oshirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilashga

qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida baholanadi [7].

Xalqaro konsalting tashkilotlari tomonidan berilgan ta'riflar ham DXShning mazmunini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Deloitte DXShni mas'uliyat, risk va daromadlarni optimal taqsimlashga qaratilgan murakkab shartnomaviy munosabatlar tizimi sifatida talqin qiladi. PwC esa yagona universal ta'rif mavjud emasligini ta'kidlab, mazkur tushuncha turli shakl va modellarni qamrab olishini qayd etadi [13].

Shu bilan birga, mavjud ta'riflarni tahlil qilish ularda ayrim kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, ba'zi ta'riflarda subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, maqsad va amalga oshirish sohalari yetarlicha aniq ifodalanmagan. Ayrim hollarda esa ijtimoiy adolat tamoyili yetarlicha hisobga olinmagan yoki DXSh faqat infratuzilmaviy obyektlar bilan cheklangan holda qaralgan. Bundan tashqari, ba'zi ta'riflar juda umumiy bo'lib, davlat va biznes o'rtasidagi har qanday hamkorlikni DXSh sifatida talqin qilishga olib keladi.

Mamlakatimiz iqtisodchilari tomonidan ham DXShda moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish yuzasidan qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, N. Shavkatovning fikricha "davlat-xususiy sherikligi - davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va xizmatlarni taqdim etishga mo'ljallangan strategik, institutsional va iqtisodiy-moliyaviy hamkorlik shakli hisoblanadi" [11]. Shuningdek, davlat-xususiy sherikligi - bu kooperativ kelishuvning bir ko'rinishi bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlat va xususiy sektor vakillarining investitsiya, infratuzilma, innovatsiya loyihalarida hamda ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, shuningdek, davlat ahamiyatiga molik dasturlardagi sheriklik munosabatlari tushuniladi. Mazkur ta'rif davlat-xususiy sheriklikning mohiyatini tizimli tarzda yoritib berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Sh. Xalilovning fikricha, "davlat-xususiy sheriklik - bu simbiotik (bir-birini to'ldiruvchi) munosabatlar bo'lib, unda davlat va xususiy sektor bir-birining bilimlari, resurslari, ko'nikmalari va tajribasidan turli sohalarda va/yoki tegishli xizmatlarni jamoatchilik manfaati uchun davlat infratuzilmasidan optimal foydalanish yo'lida birgalikda ishlaydi [10]. Uning fikriga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor o'rtasidagi simbiotik hamkorlik bo'lib, unda har ikki tomon o'zining bilim, resurs, ko'nikma va tajribalarini birlashtirgan holda jamoat manfaati yo'lida xizmat ko'rsatadi. Ushbu yondashuv DXShning asosiy ustunliklaridan biri sifatida tomonlarning o'zaro to'ldiruvchanligini va davlat infratuzilmasidan samarali foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday hamkorlik modeli resurslardan oqilona foydalanish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi integratsiya darajasini kuchaytiradi.

T. Atamurodovning tadqiqotlarida xususiy sektor va davlat o'rtasidagi hamkorlik masalalari, shuningdek infratuzilma obyektlarini xususiy mablag'lar hisobiga moliyalashtirish yo'nalishlari qisman yoritilgan [1]. Shu bilan birga, ushbu muallif ishlarida davlat-xususiy sheriklik doirasida moliyaviy munosabatlarning tizimli tahlili yetarli darajada chuqurlashtirilmagani kuzatiladi. Ushbu holat DXSh moliya mexanizmini kompleks o'rganish zaruratini yanada dolzarb qiladi.

### ***Tadqiqot metodologiyasi.***

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida olingan natijalarni chuqur tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli hamda qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, shuningdek, iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv davlat-xususiy sheriklik bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish va xolis xulosalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Davlat-xususiy sheriklikni (DXSh) o'rganish jarayonida, avvalo, mazkur mexanizm doirasida amalga oshirilgan loyihalarning jahon tajribasini, shuningdek, yirik infratuzilma loyihalarini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq moliyaviy shart-sharoitlar, risklar va ularning oqibatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ishning mazkur paragrafida turli mamlakatlarda davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlikning moliyaviy xususiyatlarini tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari yuqori salohiyatga ega bo'lishiga qaramasdan, ularni amalga oshirish jarayonida qator cheklovchi omillar mavjud. Jumladan, bozor kon'yunkturasi va tashqi muhit ta'siri, davlatning ishtirok darajasi, loyihani samarali rejalashtirish va ekspluatatsiya qilish, davlat tomonidan nazorat va qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi, shuningdek, loyihalarni to'g'ri strukturalashtirish kabi omillar muhim ahamiyatga ega [5]. Ayrim mutaxassislar fikricha, ushbu omillar orasida moliyalashtirish masalasi alohida o'rin tutadi. Shunday qarash mavjudki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) g'oyasi zamonaviy tushuncha sifatida XX asrning 1980-yillari oxirida Buyuk Britaniyada yangi turtki olib, o'z rivojlanishining yangilangan bosqichiga ko'tarilgan. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi so'nggi o'ttiz yil ichida paydo bo'lgan yangi ixtiro emas. Biroq shunga qaramay, ushbu yondashuv ko'pincha jamiyatda hamda davlat boshqaruvining turli darajalarida, jumladan, mahalliy hokimiyat organlari darajasida infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy innovatsion vosita sifatida talqin etiladi.

Aslida esa, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik infratuzilma obyektlarini qurish, ta'minlash va boshqarish jarayonlarida ko'plab mamlakatlarda qadimdan shakllangan


uzoq tarixiy ildizlarga, an'analar va tajribalarga ega. Dunyoning turli davlatlarida DXShga oid loyihalarning tarixi bir necha asrlarni o'z ichiga oladi.

Davlat-xususiy sheriklikka (DXSh) ehtiyoj, avvalo, davlat an'anaviy ravishda mas'ul hisoblangan sohalarda yuzaga keladi. Bular qatoriga umumiy foydalanishga mo'ljallangan obyektlar, jumladan transport, kommunal va ijtimoiy infratuzilma, madaniy obyektlar, tarixiy hamda me'moriy yodgorliklar, shuningdek uy-joy kommunal xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari kiradi. Odatda, davlat mazkur sohalardagi ishtirokidan to'liq voz kecha olmaydi va muayyan mol-mulk yoki faoliyat turlari ustidan nazoratni saqlab qolishga majbur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni talab etadi.

Hozirgi kunda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) Yevropa mamlakatlarida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning eng samarali va keng tarqalgan tashkiliy-iqtisodiy shakllaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu model infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va kommunal xizmatlar kabi strategik sohalarda davlat zimmasidagi yukni yengillashtirish va xususiy sektorning investitsion hamda innovatsion salohiyatini jalb etishga xizmat qiladi.

Yevropa tajribasida DXSh loyihalari nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar etish vositasi, balki davlat xizmatlari sifatini oshirish, samaradorlikni kuchaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash mexanizmi sifatida ham qaraladi.


2024-yilda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida amalga oshirilgan 39 ta loyiha moliyaviy jihatdan yakunlangan bo'lib, ularning umumiy qiymati 11,47 milliard yevroga teng bo'ldi. 2023-yilga nisbatan DXSh bozorining umumiy qiymati 17 foizga qisqargan bo'lsa-da, moliyaviy yakunlangan loyihalar soni 2,6 foizga oshib, 2023-yildagi 38 ta loyihaga nisbatan 2024-yilda 39 taga yetgan.



**1- rasm. 2015-2024-yillarda Yevropa davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bozorida loyihalar qiymati va sonining o'zgarishi [14]**

2024-yilda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bitimlarining o'rtacha qiymati 294 million yevroga teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yildagi 367,7 million yevroga nisbatan pasaygan. Ushbu davrda yirik toifaga kiruvchi oltita DXSh loyihasi moliyaviy jihatdan yakunlangan bo'lib, 2023-yilda bunday

loyihalar soni sakkiztani tashkil etgan edi. Mazkur yirik bitimlarning umumiy qiymati 7,3 milliard yevroga yetgan va bu butun bozor qiymatining 64 foizini tashkil qilgan. Taqqoslash uchun, 2023-yilda mazkur ulush 69 foizga teng bo'lgan.



**2-rasm. 2024-yilda amalga oshirilgan yirik davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari [14]**

Yuqorida aks etgan 2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, Gretsiyada Afina halqa yo'li (Ring Road)ni qayta qurish loyihasi 3,3 milliard yevro qiymat bilan eng yirik loyiha hisoblanadi. Buyuk Britaniyada Moray East

dengiz shamol elektr stansiyasi uzatish loyihasi (0,78 milliard yevro) hamda Worthing issiqlik tarmog'i (0,61 milliard yevro) asosiy yirik loyihalar sifatida ajralib turadi. Belgiyada Gent R4 avtomagistrali G'arb-Sharq loyihasi

1,02 milliard yevro qiymatga ega bo'lsa, Fransiyada Nouvelle Aquitaine – Occitanie harakatlanuvchi tarkib loyihasi 0,95 milliard yevroni tashkil etadi. Ispaniyada esa Aragon favqulodda yo'l rejasi 0,605 milliard yevro qiymatdagi muhim loyiha sifatida qayd etilgan.

2024-yilda moliyaviy jihatdan yakunlangan eng yirik davlat-xususiy sheriklik loyihalari quyidagilardan iborat:

- Belgiyadagi "Ghent R4 highway West and East" avtomagistral loyihasi – 1,023 milliard yevro;

- Ispaniyada amalga oshirilgan "Aragon Extraordinary Road Plan" yo'l infratuzilmasi loyihasi – 630 million yevro;

- Gresiyadagi "Athens Ring Road Retender" aylanma yo'l loyihasi – 3,3 milliard yevro;

- Fransiyadagi "Rolling Stock Nouvelle Aquitaine Occitanie" temir yo'l harakat tarkibi loyihasi – 950 million yevro;

- Buyuk Britaniyadagi "Moray East Offshore Wind Farm Transmission Project" shamol energetikasi uzatish tarmog'i loyihasi – 784 million yevro;

- Buyuk Britaniyada amalga oshirilgan "Worthing Heat Network" issiqlik ta'minoti tarmog'i loyihasi – 605 million yevro.


2024-yilda moliyaviy jihatdan yakunlangan jami 39 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bitimining 20 tasi 100 million yevrodan kam qiymatga ega bo'lgan. 2024-yilda moliyaviy jihatdan yakunlangan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bitimlarining 61,5 foizi davlat to'lovlariga asoslangan sheriklik shaklida amalga oshirilgan bo'lib, ularning aksariyati "availability payment" mexanizmi asosida tuzilgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yildagi 53 foizga nisbatan yuqori ekanligi kuzatilmogda.

Availability payment – davlat-xususiy sheriklik (DXSh)da qo'llaniladigan moliyalashtirish mexanizmi bo'lib, unga ko'ra davlat xususiy sherikka xizmat yoki infratuzilma obyektidan foydalanish darajasiga emas, balki uning tayyor holda (ishga yaroqli va belgilangan standartlarga mos) mavjud bo'lishiga qarab to'lov amalga oshiradi.

Loyihalarning umumiy qiymati (mlrd yevro)



Loyihalar soni



**3-rasm. 2024-yilda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarining qiymati va soni bo'yicha mamlakatlar kesimida taqsimlanishi [14]**


3-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkin-ki, Gretsiya 2024-yilda Yevropa davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bozorida qiymat jihatidan eng yirik ishtirokchi sifatida qayd etilgan bo'lib, umumiy loyihalar qiymati

3,3 milliard yevroga teng bo'lgan (2023-yilda bu ko'rsatkich 1,19 milliard yevroni tashkil etgan). Shu bilan birga, Belgiya loyihalar soni bo'yicha yetakchi o'rinni egallab, hisobot yilida 9 ta bitimni yakunlagan (2023-yilda esa 2 ta

loyiha amalga oshirilgan). Loyihalar qiymati bo'yicha Gretsiya yetakchi mamlakat sifatida qayd etilgan bo'lsa, amalga oshirilgan loyihalar soni bo'yicha Belgiya birinchi o'rinni egallagan.

Buyuk Britaniya qiymat jihatidan Yevropa davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bozorida ikkinchi o'rinni egallab, umumiy loyihalar qiymati 2 milliard yevroga teng bo'lgan.

Fransiya esa amalga oshirilgan loyihalar soni bo'yicha ikkinchi yirik bozor sifatida qayd etilgan bo'lib, hisobot yilida 7 ta bitim yakunlangan (2023-yilda 6 ta). Shuningdek, tahlillarga ko'ra, 7 ta mamlakat kamida ikkitadan DXSh loyihasini amalga oshirgan (2023-yilda ham 7 ta mamlakat), 11 ta mamlakat esa kamida bitta davlat-xususiy sheriklik bitimini yakunlagan (2023-yilda bu ko'rsatkich 12 ta mamlakatni tashkil etgan).




**4-rasm. 2020–2024-yillar davomida Yevropa davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bozorining mamlakatlar kesimidagi evolyutsiyasi [14]**

So'nggi besh yil davomida Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Italiya Yevropa davlat-xususiy sheriklik bozorida ham loyihalar soni, ham ularning umumiy qiymati bo'yicha yetakchi davlatlar sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

Sohalar kesimida tahlil qilinganda, transport tarmog'i loyihalar qiymati jihatidan

eng yirik sektor sifatida namoyon bo'lgan. Loyihalar soni bo'yicha esa ta'lim sohasi yetakchilik qilgan. Shuningdek, moliyaviy jihatdan yakunlangan bitimlarning 61 foizdan ortig'i davlat tomonidan to'lovlar amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik shakliga to'g'ri kelgan.



**5-rasm. 2020–2024-yillar davomida asosiy davlat-xususiy sheriklik (DXSh) sohalarining loyihalar qiymati bo'yicha rivojlanish dinamikasi [14]**

5-rasmda ko'rsatilishicha, 2024-yilda transport sohasi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bitimlari qiymati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan bo'lib, umumiy qiymati 6,8 milliard yevrodan oshgan (2022 yilda bu ko'rsatkich 9,1 milliard yevroni tashkil etgan). Ushbu sohadagi eng yirik loyihalar qatoriga Belgiyadagi 1,02 milliard yevrolik "Ghent R4 Highway West and East" avtomagistral loyihasi, Gresiyadagi 3,33 milliard yevrolik "Athens Ring Road Retender" aylanma yo'l loyihasi hamda Ispaniyadagi 630 million yevrolik "Aragon Extraordinary Road Plan" kirgan. Shuningdek, hisobot davrida Fransiyada amalga oshirilgan ikki ta temir yo'l loyihasi hamda Italiyaning Florensiya shahridagi shahar yengil relsli transport (light rail) loyihasi ham mazkur sohadagi muhim tashabbuslar sifatida qayd etilgan.

Loyihalar soni bo'yicha eng yirik soha ta'lim sohasi hisoblanadi: 2024-yilda ushbu yo'nalishda 15 ta bitim amalga oshirilgan bo'lib, bu 2023-yildagi 8 ta loyiha bilan solishtirganda sezilarli o'sishni ko'rsatadi. Shu bilan birga, ta'lim sohasi tranzaksiyalar hajmi bo'yicha ham ikkinchi o'rinni egallab, 2024-yilda umumiy qiymati 1,3 milliard yevroni tashkil etgan (2023-yilda 552 million yevro). Ushbu soha doirasidagi loyihalar tarkibi universitet kampuslarini rivojlantirish (Italiyada 2 ta loyiha), talabalar turar joylarini barpo etish (Fransiyada 2 ta va Buyuk Britaniyada 1 ta) hamda maktab infratuzilmasini modernizatsiya qilish (Belgiyada 7 ta loyiha) kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

Rekreatsiya va madaniyat sohasi loyihalar soni bo'yicha uchinchi o'rinni egallab, 2024-yilda jami 4 ta loyiha amalga oshirilgan (2023-yilda 2 ta). Shu bilan birga, mazkur soha tranzaksiyalar hajmi jihatidan nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'lib, umumiy qiymati atigi 65 million yevroga teng bo'lgan. Loyihalar tarkibi Litvada 1 ta va Polshada 3 ta tashabbusni o'z ichiga olgan.

Sog'liqni saqlash sohasi tranzaksiyalar hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni egallab, 2024-yilda umumiy qiymati 873 million yevroni tashkil etgan. Ushbu yo'nalish doirasida ikki ta shifoxona loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, ulardan biri Portugaliyada, ikkinchisi Daniyada joylashgan. Shuningdek, Buyuk Britaniyadagi Uels "Velindre Cancer Centre" onkologiya markazi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida rivojlantirilgan. 2023-yil bilan taqqoslaganda, mazkur soha bo'yicha davlat-xususiy sheriklik bitimlari qayd etilmagan.

2024-yilda Yevropa davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bozorida qolgan tranzaksiyalar hajmi umumiy hisobda 1,1 milliard yevroga teng bo'lib, u bir qator turli sohalar o'rtasida taqsimlangan. Umumiy davlat xizmatlari sohasi 331 million yevroni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yildagi 413 million yevro bilan solishtirganda pasayishni ko'rsatadi.

2024-yilda moliyaviy jihatdan yakunlangan 39 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bitimlarining kamida 7 tasi institutsional investorlar, jumladan sug'urta kompaniyalari va pensiya jamg'armalari tomonidan qarz mablag'lari taqdim etilishi orqali moliyalashtirilgan. Bu jarayon turli xil moliyalashtirish modellari asosida amalga oshirilgan. Taqqoslash uchun, 2023-yilda moliyaviy yakunlangan 38 ta loyihaning 9 tasida ushbu turdagi moliyalashtirish mexanizmidan foydalanilgan.

2024-yilda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirish jarayonida institutsional investorlar ishtirok etgan bitimlar Belgiya, Gretsiya, Fransiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya kabi beshta mamlakatda amalga oshirilgan. Taqqoslash uchun, 2023-yilda bunday ishtirok olti mamlakatda qayd etilgan.

2024-yilda moliyaviy jihatdan yakunlangan beshta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihasi Yevropa Investitsiya banki (EIB) tomonidan moliyalashtirilgan bo'lib, ular

uchun umumiy kreditlash hajmi 975 million yevroni tashkil etgan. Mazkur loyihalar qatoriga Italiyadagi National Strategic Hub, Lissabon Oriental Hospital, Milan Statale universiteti kampusi bo'yicha DXSh loyihasi, Fransiyadagi Rolling Stock Nouvelle Aquitaine–Occitanie temir yo'l loyihasi hamda Nancy–Contrexeville temir yo'l konsessiyasi kiradi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelining qo'llanilish doirasi kengayib, an'anaviy ravishda ustunlik qilgan bozorlar – jumladan Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlardagi yirik infratuzilma loyihalaridan tashqariga chiqib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat ayniqsa transport va atrof-muhit sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Transport sohasi qiymat jihatidan hali ham yetakchi o'rinni saqlab qolmoqda, biroq 2021-yildan buyon loyihalar soni bo'yicha pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Atrof-muhit va transport sohalari 2024-yilda moliyaviy jihatdan yakunlangan loyihalar umumiy sonining faqat 23 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 50 foizni, 2022-yilda esa 58 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, ta'lim hamda rekreatsiya va madaniyat sohalari 2021 yildan beri sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Ushbu sohalarning har biri 2024-yilda 2023-yilga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p loyihalarni amalga oshirgani qayd etilgan.

2026-yilda "yashil" texnologiyalar, raqamli innovatsiyalar va ilg'or materiallar sohalarida Yevropa Ittifoqi darajasida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2026-yildagi asosiy tendensiyalardan biri barqaror rivojlanish tamoyillariga ustuvor ahamiyat berilayotganidir. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) mezonlariga erishish vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Yevropa Ittifoqidagi korxonalarining 36 foizi iqlimga oid tartibga solish choralarini xavf sifatida baholagan bo'lsa, 27 foizi buni yangi imkoniyat deb hisoblamogda. 2025–2030-yillarga

mo'ljallangan yangi Yevropa sheriklik dasturlari doirasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish rejalashtirilgan. Jumladan, barqaror to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun 30 million yevrodan ortiq, ilg'or materiallar sohasi uchun esa 2030-yilga qadar 250 million yevrodan ziyod mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Transport va raqamlashtirish sohalari ham DXSh bozorining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, temir yo'l tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan "kelajakka yo'naltirilgan siyosiy sheriklik" tashabbusi Yagona Yevropa temir yo'l hududi (SERA) maqsadlari bilan uyg'unlashtirilmoqda. Ushbu yo'nalishda tadqiqotlar va infratuzilmani joriy etish ishlari uchun umumiy hisobda 18 milliard yevrodan ortiq investitsiya jalb qilinishi prognoz qilinmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda InvestEU dasturi xususiy kapitalni safarbar etishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Mazkur dastur orqali "yashil" texnologiyalar va sanoatni modernizatsiya qilish uchun qo'shimcha 50 milliard yevro miqdorida moliyaviy resurslarni jalb qilish rejalashtirilgan.

Bozor yetakchilari nuqtai nazaridan qaralganda, 2026-yilda ham Gresiya, Belgiya hamda Markaziy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha yetakchi pozitsiyalarni saqlab qolishi kutilmoqda. Ayniqsa, ta'lim va transport sohalaridagi loyihalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda DXSh loyihalarini moliyalashtirish tizimi yuqori darajada diversifikatsiyalangan bo'lib, u davlat va xususiy sektor resurslarini uyg'unlashtirishga asoslanadi. Bunday loyihalarda moliyalashtirishning asosiy manbalari sifatida davlat byudjeti, xususiy investitsiyalar, bank kreditlari, xalqaro moliyaviy institutlar

mablag'lari hamda qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb qilingan resurslar xizmat qiladi [4].

Muhim xususiyatlardan biri – moliyalashtirishda loyiha moliyalashtirishi (project finance) keng qo'llanilishi hisoblanadi. Ushbu usulda investitsiyalar loyihaning kelgusi pul oqimlari hisobidan qoplanadi, ya'ni qarz qaytarilishi to'g'ridan-to'g'ri loyiha samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Bu esa risklarning katta qismini xususiy sherik zimmasiga yuklaydi.

Yana bir muhim jihat – risklarni taqsimlash mexanizmidir. Rivojlangan mamlakatlarda risklar, odatda, ularni samarali boshqara oladigan tomonga yuklanadi. Masalan, qurilish va ekspluatatsiya risklari ko'p hollarda xususiy sektor zimmasiga o'tkaziladi, siyosiy va normativ risklar esa davlat tomonidan qabul qilinadi.

Jahon amaliyotida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish uchun turli moliyaviy mexanizmlardan foydalaniladi. Ular, asosan, moliyalashtirish manbalariga qarab farqlanadi. Ushbu manbalar quyidagilardan iborat [9]:

- ❖ turli darajadagi davlat byudjetlari mablag'lari;

- ❖ davlat korxonalarini va muassasalari resurslari;

- ❖ milliy xususiy sektor mablag'lari;

- ❖ jamoat va notijorat tashkilotlar resurslari;

- ❖ moliya-kredit muassasalarining qarz mablag'lari;

- ❖ qo'shma korxonalar tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali jalb etilgan mablag'lar, shuningdek xorijiy davlat va xususiy investorlar resurslari;

- ❖ jismoniy shaxslar mablag'lari va xalqaro moliyaviy institutlar resurslari.

Tarmoqlar kesimida qaralganda, rivojlangan mamlakatlarda (Avstriya, Daniya, Avstraliya, Isroil, Finlyandiya, Ispaniya, Portugaliya, Belgiya, Gretsiya, Janubiy Koreya, Irlandiya, Singapur) davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari orasida asosiy

moliyalashtirish yo'nalishi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish bilan bog'liq infratuzilma loyihalariga to'g'ri keladi. Ikkinchi o'rinda esa, ancha past ulush bilan sog'liqni saqlash, ta'lim, suv ta'minoti va kanalizatsiya sohalaridagi loyihalar turadi.

O'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda (Bolgariya, Chexiya, Vengriya, Xorvatiya, Polsha, Ruminiya, Ukraina, Boltiqbo'yi davlatlari) DXSh loyihalari asosan transport infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu doirada avtomobil yo'llari qurilishi va rekonstruksiya, portlar, temir yo'llar, ko'priklar va tonnellar, yengil yer usti metrosi hamda aeroportlar kabi yirik infratuzilma obyektlari moliyalashtiriladi.

Rossiyada DXSh amaliyoti nisbatan yaqin vaqtlarda joriy etilgan bo'lib, u asosan avtomobil yo'llari, aeroportlar, suv ta'minoti va oqova suv tizimlari, shuningdek issiqlik ta'minoti sohalarida qo'llanilmoqda. Kelgusida esa madaniyat, ijtimoiy infratuzilma va boshqa sohalarda ham DXSh loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Turli mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni tashkil etish va tartibga solish tajribasi DXSh loyihalarining samaradorligiga iqtisodiy va ijtimoiy omillar qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Buyuk Britaniya, Singapur va Qozog'iston kabi davlatlar DXShni joriy etish va boshqarish bo'yicha turlicha yondashuvlarga ega bo'lib, ular ushbu sohadagi asosiy xususiyatlar va amaliyotlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu tajribalar boshqa mamlakatlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Buyuk Britaniya davlat-xususiy sheriklik modelini qo'llashda pioner davlatlardan biri hisoblanadi va bu boradagi tajribasi katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. 1990-yillarda mamlakat yirik infratuzilma obyektlarini – yo'llar, shifoxonalar, maktablar va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega inshootlarni modernizatsiya qilish hamda yangilarini barpo etish ehtiyojiga duch kelgan. Biroq davlat

byudjeti hisobidan bunday keng koʻlamli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan edi. Shu sababli xususiy investitsiyalarni jalb etish infratuzilma loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi omilga aylangan.

Buyuk Britaniyada qoʻllanilgan eng mashhur DXSh mexanizmlaridan biri – Private Finance Initiative (PFI) hisoblanadi. U rasman 1992-yilda joriy etilgan boʻlib, davlat infratuzilma obyektlarini moliyalashtirish va boshqarishga xususiy kapitalni jalb etish konsepsiyasi sifatida shakllangan. PFI kengroq davlat sektori islohotlarining bir qismi boʻlib, davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish hamda infratuzilmani barqaror rivojlantirishni taʼminlashga qaratilgan edi.

PFI modelining mohiyati shundaki, xususiy sektor infratuzilma obyektlarini moliyalashtiradi, loyihalashtiradi, qurilish ishlarini amalga oshiradi va ularni boshqaradi. Davlat esa ushbu obyektlardan foydalanish va ularni saqlash xizmatlari uchun uzoq muddat davomida (odatda 25–30 yil) toʻlovlarni amalga oshiradi. Anʼanaviy yondashuvdan farqli ravishda, bunda loyihalarni toʻliq moliyalashtirish davlat zimmasida boʻlmay, moliyaviy yuk va ekspluatatsion risklarning katta qismi xususiy sherikka oʻtkaziladi.

PFI (Private Finance Initiative) loyihasini amalga oshirish jarayoni bir necha asosiy bosqichlardan iborat.

Xususiy sherik (odatda qurilish va moliya kompaniyalaridan tashkil topgan konsorsium) infratuzilma obyektlarini loyihalash va qurish uchun javobgar boʻladi. Bu yondashuv xususiy sektorning innovatsion yechimlaridan foydalanish imkonini beradi, natijada loyihani amalga oshirish muddatlari qisqaradi va umumiy xarajatlar optimallasadi.

Qurilish ishlari yakunlanganidan soʻng, xususiy sheriklar uzoq muddat davomida obyektни boshqarishni davom ettiradi. Masalan, shifoxonalar misolida bu tibbiy uskunalarni boshqarish, tozalik xizmatlarini tashkil etish va texnik xizmat koʻrsatish kabi

vazifalarni oʻz ichiga oladi. Shu orqali xususiy sektor obyektlarning samarali va sifatli ishlashini taʼminlaydi.

Infratuzilma xizmatlari va uning ekspluatatsiyasi evaziga davlat xususiy sheriklarga muntazam toʻlovlarni amalga oshiradi. Ushbu toʻlovlar qatʼiy belgilangan boʻlishi yoki koʻrsatilayotgan xizmat sifatiga bogʻliq ravishda oʻzgarishi mumkin. Ular koʻpincha oʻnlab yillar davomida toʻlanib boriladi va bu xususiy investorlar uchun barqaror daromad manbaini taʼminlaydi.

PFI modelining muhim jihatlardan biri – davlat va xususiy sektor oʻrtasida risklarni taqsimlashdir. Xususiy sherik loyihalash, qurilish, ekspluatatsiya va moliyaviy boshqaruv bilan bogʻliq asosiy risklarni oʻz zimmasiga oladi. Davlat esa siyosiy va makroiqtisodiy risklardan (masalan, qonunchilikdagi oʻzgarishlar yoki inflyatsiya) himoya qilish maqsadida kafolatlar taqdim etishi mumkin [8].

Buyuk Britaniyada PFI mexanizmi yangi shifoxonalar, maktablar, yoʻllar, temir yoʻllar va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish hamda boshqarishda keng qoʻllanilgan. Masalan, “New Hospitals” loyihasi doirasida xususiy investitsiyalar hisobiga 100 dan ortiq shifoxona qurilgan va modernizatsiya qilingan. Ushbu loyihalar qisqa muddatlarda amalga oshirilib, xususiy kompaniyalar tomonidan ularning uzoq muddatli samarali ekspluatatsiyasi taʼminlangan.

Yana bir muhim misol – “Private Finance Initiative in Roads” loyihasidir. U orqali yirik yoʻllar va avtomagistrallarni qurish hamda rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilgan. Xususiy investitsiyalarni jalb etish natijasida yoʻl infratuzilmasi tez surʼatlarda rivojlangan, transport aloqalari yaxshilangan va bu mamlakat iqtisodiy oʻsishiga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

2017-yilda Britaniyadagi Ijtimoiy manfaatlar va sogʻliqni saqlash markazi (CHPI) tomonidan eʼlon qilingan maʼlumotlarda xususiy sheriklar nafaqat asosiy toʻlovlarni,

balki qo‘shimcha xizmatlar orqali ham daromad olgani qayd etilgan. Masalan, shifoxonalar qurilishida ular ovqatlantirish, texnik xizmat ko‘rsatish kabi xizmatlar uchun ham haq olgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayrim hollarda xususiy investorlar daromadi ularning dastlabki investitsiyalaridan bir necha barobar yuqori bo‘lgan. Bu esa jamoatchilik noroziligiga sabab bo‘lgan va DXSh samaradorligiga nisbatan shubhalarni kuchaytirgan.

Koreya Respublikasida ham infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyoj 1980-yillardan boshlab ortib bordi. Transport vositalari sonining keskin ko‘payishi infratuzilmani rivojlantirishni talab qildi. 1994-yilda DXSh to‘g‘risida qonun qabul qilinib, xususiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan siyosat amalga oshirildi. 1998-yilda risklarni kamaytirish maqsadida minimal daromad kafolati (MRG) tizimi joriy etildi. Natijada, 2005-yilga kelib infratuzilma investitsiyalarining qariyb 16 foizi DXSh hissasiga to‘g‘ri keldi. Keyinchalik qonunchilik kuchaytirilib, iqtisodiy jihatdan samarasiz loyihalarni cheklash maqsadida 2009-yilda mazkur tizim bekor qilindi [6].

Umuman olganda, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi to‘g‘ri risk boshqaruvi, puxta huquqiy baza va moliyaviy mexanizmlarning muvozanatli tashkil etilishiga bevosita bog‘liq.

### ***Xulosa va takliflar.***

Mazkur tadqiqot doirasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirishning xalqaro tajribasi har tomonlama tahlil qilinib, uning zamonaviy iqtisodiy sharoitdagi ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, DXSh mexanizmlari davlat va xususiy sektor resurslarini samarali birlashtirish orqali yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim institutsional instrument sifatida xizmat qiladi.

Ayniqsa, byudjet imkoniyatlari cheklangan sharoitda mazkur mexanizm davlat xarajatlarini optimallashtirish, investitsiya oqimlarini jalb qilish va xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yevropa davlatlari misolida o‘tkazilgan tahlillar DXSh bozorida so‘nggi yillarda muayyan tarkibiy o‘zgarishlar yuz berayotganini ko‘rsatdi. Xususan, loyihalarning umumiy qiymatida ayrim pasayishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning sonining barqaror saqlanishi DXSh mexanizmlariga bo‘lgan talab yuqori ekanligini anglatadi. Yirik infratuzilma loyihalari hali ham bozorda ustuvor o‘rinni egallab kelayotgan bo‘lsa-da, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya va ijtimoiy infratuzilma kabi sohalarida loyihalar sonining ortishi DXShning qo‘llanilish doirasi kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur mexanizmning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyati ham ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, DXSh loyihalarini moliyalashtirishda “availability payment” kabi modellarning keng qo‘llanilishi xususiy investorlar uchun barqaror daromad manbaini shakllantirish orqali ularning ishtirokini rag‘batlantiradi. Bunday yondashuv, o‘z navbatida, loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, institutsional investorlar – pensiya jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalari va investitsiya fondlarining ishtiroki orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili DXSh mexanizmlarining amal qilishidagi muhim farqlarni ochib berdi. Rivojlangan iqtisodiyotlarda moliyalashtirish manbalari yuqori darajada diversifikatsiyalashgan bo‘lib, xususiy sektor va institutsional investorlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa davlatning faol ishtiroki, shuningdek xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etiladigan kreditlar va

kafolatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat milliy moliya bozorlarining rivojlanganlik darajasi va investitsiya muhitining barqarorligi bilan bevosita bog'liq.

Shu bilan birga, tadqiqot DXSh loyihalari samaradorligini ta'minlashda risklarni boshqarish masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Jahon amaliyotida risklarni ularni samarali boshqara oladigan tomonga yuklash tamoyili keng qo'llaniladi. Xususan, qurilish va ekspluatatsiya risklari, odatda, xususiy sektor zimmasiga yuklatilsa, siyosiy va normativ risklar davlat tomonidan qabul qilinadi. Bunday muvozanatli taqsimot loyihalarning barqaror amalga oshirilishini ta'minlaydi. Aks holda, risklarning noto'g'ri taqsimlanishi moliyaviy yo'qotishlar, loyihalar kechikishi yoki samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi va boshqa davlatlar tajribasi DXSh mexanizmlarini joriy etishda institutsional islohotlar, huquqiy bazaning mukammalligi va davlat siyosatining izchilligi hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa,

xususiy kapitalni jalb qilish uchun aniq qoidalar, shaffof tender jarayonlari va uzoq muddatli kafolatlarning mavjudligi investorlar ishonchini oshiradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bunda, avvalo, huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish, institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish va risklarni boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, loyihalarni tanlash va baholash jarayonlarida iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy ahamiyatni ham inobatga olish zarur.

Umuman olganda, DXSh mexanizmlarini takomillashtirish milliy iqtisodiyotda infratuzilmani jadal rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishda ilmiy-amaliy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim metodologik baza sifatida xizmat qilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Atamurodov T., Hamroev B. *Xususiy tarmoq va davlat hamkorligi. Monografiya, TMI. –T.: —Iqtisod-Moliya, 2013. - 96 b.*
2. Белицкая, А.В. *Правовые формы государственно-частного партнерства в России и зарубежных странах / а.в. Белицкая // Предпринимательское право. – 2009. – п2. – с. 21–27.*
3. Charles W. Cook. *Successful Contract Administration For Constructors and Design Professionals. Published November 20, 2014 by Routledge. 466 p.*
4. Grimsey D., Lewis M. K. *Public Private Partnerships: The Worldwide Revolution in Infrastructure Provision and Project Finance. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2004. – 320 p.*
5. Hodge, G.A. and Greve, C. (2011) *Theorizing Public-Private Success, Public Management Research Conference. Syracuse University, 2 - 4 June. New York: Themed Panel on Market- Based Alternatives to Government, pp.1-23.*
6. Lee Jae Sung. *Public-Private Partnerships in Republic of Korea: Experience and Results. №.3(42) pp. 217 – 224.*
7. Savas E. S. *Privatization and Public-Private Partnerships. – New York: Chatham House Publishers, 2000. – 224 p.*
8. Литвинова Н.С. *Финансирование проектов государственно-частного партнерства: посткризисная реальность и перспективы / Н. С. Литвинова // Восточно-Европейский журнал передовых технологий. – 2013. – № 2(63). – Т. 3. - С. 57–66.*

9. Мусеева И.В, Кочеткова С.А. Способы финансирования ГЧП-проектов: Зарубежный опыт и возможности его использования в России. *Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований* № 12, 2015. с. 1281-1286.

10. Xalilova Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish. *iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati*. T.:2024, 59 b.

11. Shavkatov N.Sh. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish. *Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*. 45 b.

12. Yescombe E. R. *Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance*. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2007. – 368 p.

13. Deloitte. *Public-Private Partnerships: A Global Perspective*. – London: Deloitte Insights, 2015. – 56 p.

14. *Market update review of the European public-private partnership market in 2024 march 2025*. P. 10.

15. World Bank. *Public-Private Partnerships Reference Guide*. – Washington, DC: World Bank Group, 2017. – 212 p.

16. OECD. *Principles for Public Governance of Public-Private Partnerships*. – Paris: OECD Publishing, 2012. – 96 p.